

**4-SINF ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA BERILGAN HIKOYA,
HIKMATLI SO'ZLARINING G'OYAVIY-BADIIY MAQSADI, ULARDAGI SEMALARNING TAHLIL
QILINISHI**

Mubinova Aziza

*Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti yo'nalish talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada 4-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida berilgan ayrim hikoya, she'riy shaklda yozilgan hikmatlarning g'oyaviy-badiiy maqsadi, ulardagi mavzular tahlil qilindi. Hikoyalardagi obrazlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, xarakteri tahlil qilinib, ulardan zarur bo'lgan xulosalar chiqarildi.

Annotation: In this article, some stories written in poetic form in the 4th grade "Mother Tongue" and "Reading Literacy" textbooks, the ideological-artistic purpose and themes of wise words were analyzed. The moral image and character of the characters in the stories were analyzed. Necessary conclusions were drawn from them.

Kalit so'zlar: kitob, xulosa, farishta, kasb, hikoya, bilim, maslahat, dehqon, maqsad, ona

Key words: book, summary, angel, profession, story, knowledge, advice, farmer, goal, mother

4-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi kitobi- bu kitob AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) orqali Amerika xalqining qo'llab-quvvatlashi yordamida tayyorlangan.

Darslikda berilgan "Maktub" hikoyasida ikki obraz Munisxon va uning Yulduz ismli dugonasi orqali nuroniylarni e'zozlashga, ularni asrab-avaylashga, qadrlashga, duolarini olib farovon hayot kechirishga chaqiriq va undov mavjud desak, mubolag'a bo'lmaydi. Munisxonni buvijonisi betob bo'lib, kasalxonaga tushib qolgan paytda uni shashti past bo'ladi, u buvijonisini juda ham yaxshi ko'rar edi, uni qo'msab ko'zlariga duv-duv yosh keladi. Yulduzni uyiga borganida uning buvisining aytgan gaplarini nazarga ilmayotganini ko'rib, unga nasihati bergani uning tarbiyasi, ma'naviyatli, kattalarni hurmat qiladigan qiz ekanligidan darak beradi. O'sha paytda Yulduzga buvisi havo sovuq va yomg'ir tomchilash ehtimoli bo'lgani uchun soyabon tutishini aytadi, u esa buni rad etadi. Nuroniylar-uyimizning farishtalari. Ular bizning ota-onamizni dunyoga keltirishgan, ularni ko'z-qorachig'idek e'zozlab, avaylab kamolga yetkazishgan. Ular hech qachon bizga yomonlikni ravo ko'rishmaydi, ularning ko'ngillarni shod, dillarini xushnud qilib yashash bizning asosiy vazifamiz ekanligi ushbu hikmat orqali ifodalab, tasvirlab, talqin qilib berilgan. O'zimiz uchun zarur xulosalar va saboqlar chiqarishimiz maqsadga muvofiq.

"Qarisi bor uyning parisi bor" nomli she'riy shaklda yozilgan hikmatlar ham yuqorida aytilgan fikrlarimiz tasdig'i o'laroq qog'ozga tushirilgan. Ushbu hikmatda bosh qahramon Temurbek ismli bola. Qahramonimiz dangasa, maktabda berilgan vazifalarni vaqtida

bajarishni yoqtirmaydigan, kitob mutolaa qilishni xushlamaydigan yalqov bola. Buvijonisi unga o'z hayotini so'zlab beradi, uni har tongda uyqudan uyg'otadi, unga nonushta tayyorlab beradi. Nabirasiga boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni, u kunlarning dahshatini, bir burda non sotib olish uchun necha kunlab navbatda turganini, insonlarning ochlik tufayli vafot etganini ayta turib, hozirgi zamonda yaratilib berilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlar, yoshlarning har tomonlama qo'llab- quvvatlanayotganligi, internetning bugungi kunda odamlar hayotida tutgan o'rni qanchalik yuqori ekanligini, XXI asrda insonlar uchun barcha shart-sharoitlar, qulayliklar yaratib berilayotganini alohida ta'kidlab, nabirasini ta'lim olishga, bilim egallashga, ilm ummoniga sayohatga chiqishga, tomirida Jaloliddin Manguberdidek mard ajdod qoni oqayotganini, Beruniydek bilag'onlik shuurida jo'sh urib turganini, Navoiydek ilm ummonidan ko'plab marvarid-u durlar tera olishi mumkinligini tushuntiradi, unga hayotiy saboq va tarbiya berishga jon-jahdi bilan harakat qiladi. Aqida aya mehribon, farishta, nurli inson sifatida tasvirlab, gavdalantirib berilgan.

Darslikda "Sharqona tarbiya " kitobidan olingan bir rivoyat keltirilgan. Unda bir podshoh bo'ladi, u yoshi yetmishdan oshgan barcha nuroniylarni bir orolga surgun qiladi, ya'ni uning fikricha, yoshi o'tgan insonning jamiyat uchun hech qanday nafi tegmaydi. Bir dehqon onasini bu azobga giriftor bo'lishidan asrash maqsadida uni bir baland tog'ning cho'qqisidagi vodiya olib boradi. Onasi yo'lda ketayotganida shox-shabbalarni teradi va ularni yerga tashlab ketaveradi, chunki u farzandini orqaga qaytayotganida adashib qolishini istamaydi. Dehqon onasini vodiya tashlab keladi, birozdan so'ng o'g'il qilgan ishidan pushaymon bo'lib onasini ko'zida yosh olguncha uyga olib keladi va yer to'lasida hujra yasaydi, onasi o'sha yerda yashay boshlaydi, u onasiga g'amxo'rlik qiladi. Oradan necha kunlar o'tadi. Bir kuni podshoh odamlarga qimmatbaho toshdan kim ip o'tkazsa, unga istagan narsasini berishini va'da qiladi. Dehqon donishmand onasidan buning sirini so'raydi, ona shunda: -Qimmatbaho toshning teshigidan chumolini ipga bog'lab o'tkazgin va toshning bir tarafiga asalni surtgin deydi. Shu ishlar bajarilganidan keyin, haqiqatan ham ip qimmatbaho toshning teshigidan o'tadi. Dehqon onasining donishmand ekanligini shu ondayoq fahmlab yetadi. Shunda dehqon podshohdan qariyalarni bundan buyon orolga surgun qilishni to'xtatishni iltimos qiladi. Podshoh bunga rozi bo'ladi, endi bu yurtda ham shu voqeadan so'ng keksalar e'zozlanadigan, qadrlanadigan va asrab-avaylanadigan bo'ladi. Haqiqatdan ham ularning hayot ekanliklarni uyimizni charog'on qiladi. Nuroniylar uyimizning farishtalari, jannati buvijon va buvajonlarimiz bizga Alloh tomonidan in'om etilgan buyuk baxt, ulug' nematdir. Ularning aytgan har bir so'zlari, gaplari biz uchun hikmatli so'z, hayotimiz davomida dastur-ul amal bo'lib xizmat qilishi shak-shubhasizdir. Ularning ko'zlaridagi nur, yuzlaridagi samimiyat, tillarida jarang sochib turgan beminnat duolar bizni hamisha asrab-avaylaydi, to'g'ri yo'ldan yurishga da'vat etadi, doimo har birimizning boshimizda duogo'ylarimiz, aziz buvijon-u buvajonlarimiz, sog'-u salomat bo'lsinlar.

4-sinf Ona tili va O'qish Savodxonligi darsligidagi har bir mashq, topshiriq, matn, rivoyat, hikoya, hikmatli so'zlar o'quvchi ongiga o'zgacha ta'sir ko'rsatib, ularni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, ularni go'zal xulq-atvor va odob bilan bezashda yordam beradi. "Kasblar haqida Ertak" da yuqorida aytilgan fikrlar o'z isbotini topgan. Ertakda ikki opa - singil ko'chada o'ynab, sho'xlik qilib, bolalikning beg'ubor damlarini birga o'tkazib, quvnab, shod-u xurram yashashi tasvirlab berilgan. Bir kuni konfet qog'ozini opa-singil ko'chaga tashlashadi, shu paytda qora kamzulli bir chol ularning yonidan chiqib qoladi. Chol ularga quyidagicha savol beradi:

-Kelajakda kim bo'lmoqchisizlar?

-Malika bo'lmoqchimiz. Bizga bu kasb juda ham yarashadi...

Malika degan kasb dunyoda yo'q ekanligini chol ularga tushuntirishga harakat qiladi. Bir necha kasblardan misol tariqasida keltirib o'tadi. Haydovchini odamlarning uzog'ini yaqin qilib, ularni ko'zlagan manzillariga tezda olib borib qo'yishini, shifokorlarning insonlar kasal bo'lganida ularni davolashini, oshpazning bir-biridan sarxil taomlar va shirinliklar tayyorlab, insonlar ko'nglini shod etishini, o'qituvchilarning o'quvchilarga bilim, ilm berishini aytib, ularga ham biror kasb yoki hunar egallash lozimligini uqtiradi. Shundan so'ng bu shahardagi jamiyki kasb egalari xotiralarini birin-ketin yo'qota boshlaydilar. (Sababi chol sehrigar bo'ladi, qizaloqlarning qilgan ishlarini tushunib yetib, xatolarini tuzatishlari uchun shunday yo'l tutadi, uning nazarida bu ularga jazo qo'llashning o'ta oqilona usuli edi) Qizlar uylariga shosha-pisha kirib boradilar, hatto onalari ham ovqat tayyorlashni yodidan chiqarib qo'yadi, uydagi televizor ham ishlamaydi, ko'chadagi shirinlik do'konlari ham yopib qo'yiladi. Ular qilgan qilmishlaridan pushaymon bo'ladilar va konfet qog'ozlarini olib axlat qutisiga tashlaydilar, shunda ikki opa - singil kelajakda o'z o'rniga ega bo'lishi, orzulari ushalishi, niyatlari ro'yobga chiqishi uchun ham ma'lum bir kasbga ega bo'lishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yadilar. Bu hikoya bizga hayotda aniq maqsad qo'yib yashashni, hayotimizda mavjud bo'lgan har bir narsaning vaqtida qadriga yetishni o'rgatadi, bizni shunga undaydi va da'vat etadi.

4-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi kitobida bir-biridan qiziqarli, kundalik turmush tarzi yaqqol aks ettirilgan, real, haqiqatdan darak beruvchi hikoyalar, rivoyatlar keltirilgan, ular o'quvchilarni hayotga tayyorlashni, ularni ham ma'nan, ham jismonan va aqlan yuksaltirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Mana shunday hikoyalardan birining nomi "Hunar". Ushbu hikoyadan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, har bir inson, albatta, farovon turmush kechirishni, orzu-niyatlarini amalga oshirishni istaydi, ammo buning uchun istakning, yoki xohishning o'zigina kamlik qiladi. Inson qachonki harakat qilsa, maqsadlariga erishish uchun dadil va bardam qadam tashlasa, bu yo'lda g'ov bo'ladigan to'siqlarni, mashaqqat va qiyinchiliklarni metin iroda, umidvorlik, sabr-qanoat va bardosh bilan yengib o'tsagina maqsadiga erisha oladi, o'z kasbi yoki hunarining mahoratli egasi bo'la oladi. Yuqorida aytilgan fikrlar o'ymakor Abduazim aka misolida hikoyada yaqqol bo'y ko'rsatadi. U o'gli Rahimga o'z hunarini o'rgatadi. Mahallada undan-da mohir o'ymakor-naqqosh usta topilmaydi. Qo'li gul, o'z ishiga sadoqat bilan yondashadigan bu insonning

hunarini ko'rib, Rahimning do'sti ham havas qiladi. U ta'tilda kelib, Abduazim akadan bu hunarning sir-u sinoatlarini o'rganishga bel bog'laydi. Abduazim aka uni shogirdlikka qabul qiladi. Bu hikoyadan kelib chiqadigan asosiy g'oyaviy-badiiy maqsad: "Yigit kishiga qirq hunar ozligi"ni amalda isbotlash, qo'lida hunari bor insonning hayotda hech qachon xor bo'lmasligi, insonlarga nafi tegishi, hunarmandlarning elimizda e'zozlanishi, ardoqlanishini ta'kidlash va insonda kasb-hunarga, mehnatga muhabbatni bolaligidanoq uning qalbida uyg'otish. Hunar-topilmas va tengi yo'q xazina. Inson boylikka, dunyoning o'tkinchi hoy-u havaslarga hamisha o'ch bo'ladi. Lekin inson hech qachon bu narsalarga to'ymaydi. Bular bir kun insonni tark etadi, ammo hunar inson bilan doimo birga bo'ladi, unga hamisha asqotadi, yiqilgan paytda oyoqqa turishiga ko'makchi bo'ladi, elda obro'sini oshiradi. Bejizga xalqimiz." Hunarli kishi xor bo'lmas"-deb, aytmagan. Aslida har bir hikmatli so'z, hikoya va rivoyat hayotimizda ro'y beradigan voqea-hodisalar pirovardida paydo bo'ladi. Ular insonni yaxshilik, ezgulik sari chorlaydi. Ularda hayotimiz sirlari pinhon bo'ladi. Biz ularni mutolaa qilib, xulosa chiqarishimiz va umrimiz davomida ularga amal qilishimiz, albatta, foydadan xoli bo'lmaydi.

Aziz o'quvchilar, yoshlik yillaringizni behudaga sarf etmang, uning har bir soniyasini qadrlang, xayrli yumushlar bilan mashg'ul bo'ling, porloq va yorug' kelajak sizning qo'lingizda, ajdodlarga munosib zurriyot bo'lib, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishingizda sizlarga omad tilab qolaman. Ilm olishdan, bilim egallashtan, izlanishdan va harakat qilishdan aslo to'xtamang.

Qadrli bolajonlar, quyidagi hikmatli so'zlar, maqollarni hayotingiz davomida dastur-ul amal qilib olsangiz, ilmning yuksak cho'qqilarini zabt etib, ko'zlagan maqsadingizga oson erishasiz.

1. Inson qanchalik ko'p bilsa, u shu qadar kuchli.
2. Bizning ishimiz — o'qish va o'qish, imkoni boricha ko'proq bilimga ega bo'lish uchun intilish, chunki jiddiy ijtimoiy yo'nalishlar — bilim bor yerda, insoniyatning istiqbol baxti ham faqat bilimda.
3. Bilmaganni so'rab o'rgangan — olim,
Orlanib so'ramagan — o'ziga zolim.
4. Har kim otasi va bobosi ko'rgan va bilganiga qaraganda, ko'proq ko'rish va bilishga intilmog'i lozim.
5. Bilimligi dunyo yorug'
Bilimsizga- qorong'u.
6. Bilim-davlatdan qimmat.
7. Insonga bilimning zarurligini uqtirish, unga ko'rishning ahamiyatini uqtirish bilan baravardir.
8. Bilim — biz yashayotgan dunyoning mutlaq qimmatli boyligi. O'qimoq zarur, bilmoq zarur. Bilib bo'lmaydigan narsa yo'q, biz bilib olinmagan narsalar xususidagina gap yuritishimiz mumkin.

9. Bilim manbai behad: insoniyat bu yo'lda qanchalik yutuqlarga erishmasin, barcha odamlarning izlanishi, kashfi va bilimi uchun o'rin topiladi.

10. O'z nuriga ishongan boshqaning porlashidan cho'chimaydi!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 4-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi O'qituvchilar uchun Qo'llanma Toshkent-2022.

2.D.Sc.,Zuxra Saliyeva, Geri Burkholder, Malohat Djalaldinova, Dilfuza Karimova, Dilfuza Kuldasheva,Elizabeth Long, Jessica Mejia, Chelsea Peter's.

3.O'zbekiston Barkamollik Uchun Ta'lim Dasturi

4.ziyouz.com

5.kh-davron.uz

6.uz.m.wikipedia.org.

7.sirlar.uz